

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorova	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini	317
Г.М.Хошимов	
Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербиальным компонентом темпоральности.....	322
N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxobov	
Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida	329
M.Sharipova	
Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili	334
A.O'.Abdullayev	
Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337
O'.A.Xudoynazarova	
Islom ta'limoti asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar	344
F.R.Turg'unova	
Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish	349
M.A.Abduvaxobova	
Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir	354
M.A.Kurbanov	
Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi.....	358
M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova	
Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish	364
M.Karimov	
"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	368
X.P.Муртозоев	
Вижагиҳои савти ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс.....	374
N.N.Odilova	
A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature	384
M.B.Shamsiyeva	
Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida.....	388
I.T.Rustamov	
Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni	392
K.Yu.Feryza	
Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности	396
C.Э.Саидова	
Манзараи этники-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	401
G.A.Komilova	
Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi	406
C.Ч.Маҷитова	
Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдурахмони ҷомӣ.....	410
M.A.Matmusayeva	
Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida	419
Y.Sh.Shuxratova	
Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir	423
H.H.Xoldorova	
Study of the concept of "Field" in modern linguistics	426
D.I.Mirzayeva	
Contextual-semantic analysis of fixed similes in english.....	429
K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi.....	432



«YOSH» TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TALQINI

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ «ВОЗРАСТ»

LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT "AGE"

Axrorova Ruzixon Usmanovna 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya

Maqolada "yosh" tushunchasi va uni guruhlariga bo'linishi nafaqat biologik parametrlarga, balki ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlarga: jamiyat strukturasi va madaniyatiga (shu bilan birga tilga, olamning til manzarasiga) o'zaro bog'liqligi isbotlangan. «Yosh» tushunchasining murakkabligi til dalillari bilan oydinlashishi hamda turli ilmiy sohalarida qo'llaniladigan juda ko'p sonli, masalan: biologik yosh, xronologik yosh, somatik yosh, ma'naviy yosh kabi terminologik birikmalar paydo bo'lishi ya'ni inson hayoti bir necha yosh bosqichlarini o'z ichiga olishi ilmiy tadqiqotlar misolida ochib berilgan bo'lib, biroq ularning sonini va aniq davr chegaralarini olib borilgan tadqiqotlar misolida yoritilgan. «Yosh davr»lari xilma-xil madaniy-tarixiy, ijtimoiy, semiotik, yoshga oid va boshqa omillar bo'lgan noaniq to'plamni hosil qiladi. Bu omillarning hammasi jamiyatning «yosh» strukturasi, u yoki bu yosh guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini hamda ularga baho beruvchi munosabatni anglashga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, turli lingvomadaniy guruhlarida yosh haqida qandaydir stereotip tasavvurlar mavjud bo'lib, ular turli milliy tillarda o'z ifodasini topganligi va bunday stereotip obrazlarni o'rganishda har xil tipdagi: leksikografik, matnga oid, diskursiv manbalarga hamda tajriba ma'lumotlariga tayanish lozimligi o'rganilgan.

Аннотация

В статье доказано, что понятие «молодёжь» и её деление на группы связано не только с биологическими параметрами, но и с социальными особенностями: структурой общества и культурой (в том числе языком, картиной мира в языке). Сложность понятия «молодёжь» проявляется через языковые доказательства, а также появляется множество терминологических сочетаний, таких как: биологический возраст, хронологический возраст, соматический возраст, духовный возраст, которые используются в разных научных областях. Это подтверждается примерами научных исследований, в которых раскрывается, что человеческая жизнь включает несколько возрастных этапов. Однако их количество и чёткие границы возрастных периодов рассматриваются на примере проведённых исследований. «Возрастные этапы» формируют неопределённый набор факторов, таких как культурно-исторические, социальные, семиотические и другие возрастные факторы. Все эти факторы влияют на понимание структуры «молодёжи» общества, особенности различных возрастных групп и отношения к ним. Также существует стереотипное восприятие молодёжи в разных лингвокультурных группах, которое находит своё выражение в разных национальных языках. В исследовании рассмотрено, как такие стереотипные образы могут быть изучены с опорой на различные типы источников: лексикографические, текстовые, дискурсивные, а также опытные данные.

Abstract

The article proves that the concept of "youth" and its division into groups is related not only to biological parameters but also to social characteristics such as the structure of society and culture (including language, the worldview in language). The complexity of the concept of "youth" is clarified through linguistic evidence, and many terminological combinations such as biological age, chronological age, somatic age, spiritual age, which are used in various scientific fields, have emerged. This is supported by examples from scientific research, which show that human life consists of several age stages. However, the number of these stages and the exact boundaries of age periods are discussed in the context of the studies. "Age stages" form an uncertain set of factors, such as cultural-historical, social, semiotic, age-related, and other factors. All these factors influence the understanding of the "youth" structure of society, the characteristics of different age groups, and the attitudes towards them. Additionally, there are stereotypical perceptions of youth in different linguocultural groups, which are expressed in various national languages. The study investigates how these stereotypical images can be explored based on different types of sources, such as lexicographical, text-based, discursive, and experiential data.

Kalit so'zlar: "yosh" tushunchasi, biologik parametrlar, ijtimoiy, xususiyatlar, jamiyat strukturasi, til, madaniyat, ilmiy soha, biologik yosh, xronologik yosh, somatik yosh, ma'naviy yosh, terminologik birikmalar, yosh bosqichlari, ilmiy tadqiqotlar, davr chegaralari, yosh davr, madaniy-tarixiy, ijtimoiy, semiotik, omillar, "yosh" strukturasi, stereotip tasavvurlar, milliy tillar, leksikografik, diskursiv.

Ключевые слова: понятие "возраст", биологические параметры, социальные, характеристики, структура общества, язык, культура, научная область, биологический возраст, хронологический возраст,

соматический возраст, духовный возраст, терминологические сочетания, возрастные этапы, научные исследования, границы периодов, возрастной период, культурный -исторический, социальный, семиотический, факторы, "возрастная" структура, стереотипные образы, национальные языки: лексикографический, дискурсивный.

Key words: "age" concept, biological parameters, social, characteristics, society structure, language, culture, scientific field, biological age, chronological age, somatic age, spiritual age, terminological combinations, age stages, scientific research, period limits, age period, cultural-historical, social, semiotic, factors, "age" structure, stereotypical images, national languages: lexicographic, discursive.

KIRISH

Yosh - inson mavjudligining eng muhim xarakteristikasidir. Konkret uyushma madaniyatining o'ziga xos xususiyati ko'pincha turli yosh guruhlarini munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Odamlarning umr yoshlari haqidagi tasavvurlari yetarli darajada murakkab. Yosh guruhlariga bo'linish nafaqat biologik parametrlarga, balki ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlarga: jamiyat strukturasi va madaniyatiga (shu bilan birga tilga, olamning til manzarasiga) o'zaro bog'liqdir. "Yosh" tushunchasining murakkabligi til dalillari bilan oydinlashadi, bu yerda turli ilmiy sohalarida qo'llaniladigan juda ko'p sonli, masalan: biologik yosh, xronologik yosh, somatik yosh, ma'naviy yosh kabi terminologik birikmalar ajralib chiqadi.

Inson hayoti bir necha yosh bosqichlarini o'z ichiga oladi. Biroq ularning sonini va aniq davr chegaralarini ko'rsatish juda mushkul. "Yosh davr"lari xilma-xil madaniy-tarixiy, ijtimoiy, semiotik, yoshga oid va boshqa omillar bo'lgan noaniq to'plamni hosil qiladi. Bu omillarning hammasi jamiyatning «yosh» strukturasi, u yoki bu yosh guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini hamda ularga baho beruvchi munosabatni anglashga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, turli lingvomadaniy guruhlarida yosh haqida qandaydir stereotip tasavvurlar mavjud bo'lib, ular turli milliy tillarda o'z ifodasini topgan. Bunday stereotip obrazlarni o'rganishda har xil tipdagi: leksikografik, matnga oid, diskursiv manbalarga hamda tajriba ma'lumotlariga tayanish lozim.

Insonni u yoki bu yosh guruhiga kiritish, shuningdek, u yoki bu yoshning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari haqidagi tasavvur turli madaniyatlarda va tarixiy davrlarda turlicha bo'lishi mumkin. V.Foytning qayd qilishicha, «yosh guruhlarining tasnifi ijtimoiy va biologik vazifalarning o'zgarishidan, odamlarni go'daklar, bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar va nihoyat keksalarga bo'lishga majbur qiladigan o'zgarishlardan kelib chiqadi. Biroq, hattoki aynan bitta sivilizatsiyani namoyon qiluvchi madaniyatlarda yosh guruhlarining konkret tizimlari juda katta farq qilishi mumkin».[5]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

F.Ariesning ta'kidlashicha, o'rta asrlarda Frantsiyada «umr yoshlarini» son timsoliga (masalan, «yosh»lar sonining yoki burjning belgilari soniga mos kelishiga va h.k.) asoslangan davriylashtirish tarqalgan edi. Ha, shunday davriylashtirishning birida 7 ta sayyora mos keluvchi 7 ta yoshni ajratib ko'rsatadi; boshqa tasnifda esa inson umrini yilning 12 oyiga yoki burjning 12 belgisiga mos keladigan holatdir, deb ta'kidlaydi. Yoshni bu kabi davrlashtirish shartli bo'lib, hozirgi nuqtai nazardan sodda, ammo ahamiyatli emas, chunki na real biologik yosh o'zgarishlarini, na odamlarning u yoki bu yoshiga xos bo'lgan ijtimoiy vazifalarni aks ettirmaydi.

O'rta asr ilmiy davrlashtirishda, asosan, lotincha terminologiya qo'llangan. Shu bilan birga, frantsuz tili butunlay boshqa, realistik yosh davriyligini aks ettirardi. "XVI asrda, bu terminologiyani frantsuzchaga o'tkazish taklif qilinganida, frantsuz tilida shunday bo'lib chiqdiki, demak, frantsuzcha so'z qo'llashda bunday tipdagi so'zlar lotin tilidagiga qaraganda, loaqal ilmiy lotin tiliga qaraganda, ancha kam bo'lib chiqdi... Fransuz tilida biz lotin tilidagiga qaraganda katta qiyinchiliklarga egamiz, chunki lotin tilida yetti umr yoshi (etti sayyora kabi) uchun nomlar mavjud bo'lib, ayni paytda frantsuz tilida faqat uchta nom, chunonchi, bolalik, o'spirinlik va keksalik mavjud". [1]

Tilda va yosh nominatsiyalarini qo'llash normalarida aks etgan jamiyat yosh strukturasi nafaqat tasavvuri, balki u yoki bu yosh guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari va bu bilan, masalan, yoshlik yoki keksalik bilan bog'liq ijobiy yoki salbiy baholar haqidagi tasavvur milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatga ega.

Sotsiologiyada, etnografiyada bu hodisa yaxshi ma'lum va u bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ko'pincha yoshlikka va keksalikka g'arb (Evropa, Amerika) va sharq (masalan, yapon) madaniyatlarida turlicha munosabat ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik xalqlarda keksa (yoki umuman katta) kishilarga nisbatan boshqacha hurmat munosabati mavjud bo'lib, u tilda va odob-axloq qoidalarida qayd qilingan. Masalan, sudanliklarda yoshlar tomonidan kattalarga nisbatan

TILSHUNOSLIK

ishlatiladigan leksikaning bir talay qatlami mavjud. Bu "aftidan, yer sharining barcha xalqlari odob-axloq qoidalariga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatgan ibtidoiy gerontokratiyaning konservatsiyasi (saqlanib qolishi) natijasidir". [3] Adigeylarning odob-axloq qoidalarida "yoshlar tomonidan keksalarga nisbatan qo'llaniladigan, keksa aksirsa, yosh suv ichishga kirishadi, derazadan ko'rinadi va hatto hurmatli keksa umuman bo'lmasa ham (yoki u tirik bo'lmasa ham), biroq uning ismi yodga olinsa o'rnidan turish harakati misol bo'lib xizmat qilishi mumkin". Keksalarga nisbatan an'anaviy odob-axloq printsiplarini buzish nojoiz va tanbehga loyiq. Hikoyalarda va masallarda odob-axloq qoidalarini buzish ko'p hollarda xudolardan va qahramonlardan kelib chiqadigan qasosga olib keladi.

Keksalikka qarama-qarshi munosabat timsoli sifatida amerika madaniyati misol qilish mumkin. Amerikalik sotsiologlar AQShda keksa kishilarga munosabatni tasvirlash uchun 1969 yilda amerikalik sotsiolog Robert Butler tomonidan yaratilgan, "ayrim avlodlar kogortasini (to'dasini) yosh printsipli bo'yicha normativ kamsitish"ni ifodalovchi "eydjizm" atamasini qo'llaydi, shu bilan birga, hozirgi jamiyatda ushbu kamsitish eng katta yoshdagi aholi o'rtasida eng past mavqega ega bo'lgan eng keksa bo'g'in to'dalariga taalluqlidir. "Eydjizm ayniqsa AQShda kuchlidir, u yerda har doim mahorat, kuch, yoshlik va energiya qadrlangan, farqli ravishda, Yaponiya, Kavkaz, O'rta Osiyo mamlakatlarida, an'anaga ko'ra keksa odamlar hurmat va e'tiborga sazovordirlar, yuqori mavqega egadirlar. Bu salbiy stereotiplar keksa (uncha tushunmaydigan, kam harakatli, aqliy qobiliyatlari susaygan) kishilarga nisbatan ko'pincha asossizdir, biroq yoshlar ham, keksalar ham ularni to'g'ri deb hisoblashni davom ettirmoqdalar..." [16]

NATIJ VA MUHOKAMA

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Rossiya jamiyatida yosh va keksa avlod Amerika madaniyatiga qaraganda boshqacha ta'riflanadi va baholanadi. Shunday qilib, N.V.Shaxmatova o'zining tadqiqot natijalarini amerikalik sotsiologlarning tadqiqotlari natijalari bilan solishtirib ko'rib ta'kidlaydiki, u o'tkazgan tadqiqotlarda "yosh bilan bog'liq emotsional salbiy mulohazalar deyarli sezilgani yo'q" va "so'rov natijalari boshqa sotsiologlarning izlanishlari natijalarini tasdiqladi va katta yoshdagi avlodning mas'uliyat va shaxsning fuqarolik xislatlari bo'yicha ancha yuqori bahosini ko'rsatdi...". Tadqiqotchi tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovning ko'rsatishicha, barcha yosh guruhlar vakillarining qo'shilishlariga ko'ra, eng umumiy tasavvurlar, umuman olganda, keksa avlodga ijobiy baho va yoshlarning yetarli darajada tarqalgan salbiy bahosidir. "Barcha bo'g'inlar yakdillik bilan "uchinchi yosh kishilarining" yaxshiligini, fidokorligini, ishonuvchanligini qadrlaydilar". [16] Yosh kishilar uchun umumiy bo'lgan narsa "yoshlarning yaxshi yetilmay qolganligini tan olishdan iborat, bu masala bo'yicha hamma bir fikrdadir". Bundan tashqari, yosh kishilar ham, boshqa yosh vakillari ham yoshlarda yaxshilik, halollik, insofilik kabi xususiyatlar yetishmayotganligini, ular "kattalarga qaraganda xudbinroq ekanligini, ko'pincha loqaydlik va mas'uliyatsizlik ko'rsatishlarini, ishdan, jiddiy hayotiy strategiyalarni amalga oshirishdan ko'ra ko'ngilxushliklar haqida ko'proq o'ylashlarini ta'kidlaydilar" [16]. Shubhasiz, bu yerda stereotipning ko'rinishi, yosh yigitning tipik obrazi mavjud, buning ustiga, bu tasavvurda barcha yosh guruhlar vakillari hamfikrdirlar.

Shu dalil qiziqarlilik, rossiyalik va chet ellik tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko'ra, u yoki bu bo'g'inlar haqidagi stereotip tasavvurlarga, bu stereotip obrazlar ijobiy yoki salbiy bahoni o'z ichiga olganligidan qat'iy nazar, barcha yosh guruhlar vakillari qo'shiladilar. Ayrim sotsiologik ishlarda keksalikka salbiy munosabatni yoki yoshlikka ijobiy munosabatni tildagi u yoki bu konnotatsiyalarning mavjudligi bilan bog'lashga uriniladi.

Rus va amerika madaniyatlarida "yoshlik" va "keksalik" tushunchalari bilan bog'liq barqaror iboralar, frazeologizmlar bilan assotsiatsiyaga kirishuvchi konnotatsiyalarning farqi shu bilan bog'liqki, rus madaniyatida "hozirgi kun ko'p jihatdan o'tmish bilan bog'liqlikda ko'riladi, ayni paytda amerika madaniyatida hozirgi kun idrokida kelajakning boshlanishi va o'tmish bilan bo'sh aloqa ustunlik qiladi". [8] "Kelajakka amerikacha intilish, bu albatta, taraqqiyotning (progress va change so'zlari aniq ifodalangan ijobiy konnotatsiyaga ega), harakatlarning uzoq muddatli rejalashtirishni (ba'zida bir necha yil oldinga), rejalashtirilgan barcha narsalarni amalga oshirishiga va kommunikativ muomalaning tegishli ko'rinishlariga (masalan, unashtirishning oldindan e'lon qilinishi, homiladorlik va h.k. haqida) shubhaning yo'qligini ifoda etadi. Kattalik qadriyat hisoblanmaydi. Joriy faoliyat o'z-o'zicha emas, balki bo'lajak maqsadlarga erishishning vositasi sifatida muhimdir". "Ruslar ko'p jihatdan o'tmishning davomi bo'lgan hozirgi kun bilan yashaydilar, o'tgan bo'g'inlarning donoligini va

madaniyat hodisalarini kommunikativ-muomalaning ustuni deb hisoblaydilar. Ular uchun kelajakka falsafiy, skeptik (ishonchsiz) va hatto xurofiy munosabat ko'proq xosdir. Amerikaliklar uchun yangilik tushunchasi g'oyat muhim hisoblanadi (...) Youth obsession ("yoshlikdagi telbalik") tushunchasi ko'p jihatdan kommunikativ harakatlarni ifodalaydi"[8].

G'arb dunyosi tomonidan e'tiqod qilinayotgan kelajakka talpinish yoshlikka sajda qilish bilan uzviy bog'langan. Faylasuf N.Ribakovaning hisoblashicha, "g'arb sivilizatsiyasi og'ishmay "yosharyapti" va natijasi ahmoqlashayapti". Muallif o'z kitobida keksalikni tan olish tajribasini yevropacha fikr bilan umumlashtiradi. Faylasuf shunga urg'u beradiki, keksalik - bu mutlaqo "ijtimoiy patologiya" emas, "kasallik" hamdir. Bu eng avvalo ruhiy yuksalishdir [12].

Chet ellik tarixchilar, madaniyatshunoslari, siyosatshunoslarning ishlarida qayd qilinishicha, XX asrning Yevropa madaniyatida ustunlik qilayotgan "yoshlik" va "keksalik" tushunchalari hammabop emas va juda ko'p ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Antik davr keksalikning mohiyatini "jonli tananing" aqlliligida, xristianlik - "inson va insoniyat o'zgarishining transtsedent chizig'ida ko'radi", "antik davr tanasi printsiptini o'rta asrlarning shaxsiy printsipti bilan birlashtiruvchi Uyg'onish davri esa, birinchi bo'lib keksalik muammosini Xudo va odamlar oldidagi shaxsiy xizmatlari sifatida aniq qo'yadi"[12]. Yevropada hukmronlik qilgan va o'sha davrlarning matnlarida qayd qilingan yoshlik va yoshlar haqidagi tasavvur hozirgidan farq qiladi. Italiyada XIII-XIV asrlarda yoshlikning asosan negativ obrazi shakllanadi, u jismonan rivojlangan inson hali yetarli darajada ma'naviy va aqliy rivojlanishga erishmagan, boshqaruvsiz qolib, buzuvchilikka beriladigan, qaror topgan ijtimoiy normalarni buzadigan davr sifatida idrok qilinadi, chunki u hali o'zini boshqarishni bilmaydi. Faqat XX asrda shaxsiy madaniyat katta yoshdagi kishilarning mangu yoshlik haqidagi utopik orzusini ifodalaydigan yoshlikning mutlaqo ijobiy obrazini yaratdi.

Faylasuflar M.Xaydegger, M.M.Mamardashvili, T.de Sherden va boshqalar zamon va makondagi inson hayotining muammolariga ko'p e'tibor berdilar [15]. Falsafiy ishlarda "yosh" tushunchasi mavhumlik xarakteriga ega bo'lgan Hayot, Makon, Zamon, Harakat, Sifat, Miqdor, Holat va boshqalar bilan bevosita aloqadordir. Umuman olganda, semantik jihatdan yosh kategoriyasi zamon kategoriyasi bilan uzviy aloqador bo'lib, yosh tushunchasining mohiyati zamonda mavjudlik belgisidan ayro bo'la olmaydi. Aynan zamon kategoriyasi "yosh" tushunchasining mazmuniy murakkabligini belgilab beradi, chunki insonning zamon haqidagi bilimlari ko'p qirrali va rang-barangdir.

XULOSA

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, "yosh" tushunchasi tilda verballashadi, shu sababli tushunchaning til sohiblari ongidagi mazmuni haqidagi tasavvurni olish uchun tushunchani ifoda qilishning barcha til vositalari majmuini: leksikografik manbalarni, paremiyalar to'plamlarini, mualliflik matnlarini va h.k. ko'rib chiqish zarur. Jamiyatning yosh strukturasi va u yoki bu yoshga oid guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi milliy, o'ziga xos tasavvur tilda va nutqda qayd qilinadi (til birliklari mazmunlarida, shuningdek, til sohiblarining kontseptual tasavvurlari tizimida aks etadi). Masalan, yosh, keksa, bola kabi tushunchalar olam milliy-lisoniy manzarasining muhim elementlari hisoblanadi, demak, ular, shuningdek, o'ziga xos milliy-lisoniy xususiyatga ega.

Tartibga solingan ko'pdan-ko'p birliklar kabi yosh leksikasi ko'plab dissertatsiyalarning tadqiqot obyektiga aylandi.[9] Ko'rsatilgan ishlar tilga umumiy yondashuv doirasida bajarilgan; ularning umumiy maqsadi struktur-semantik tadqiqotlar uchun an'anaviydir: leksikaning alohida sohasining tuzilishini tasvirlash, tizimli munosabatlarini aniqlashdir. N.N.Kuznetsovaning dissertatsiyasida rus xalq ertaklarida inson yoshini aniqlovchi sifatlar tahlil qilinadi[7]. A.T.Ashxarovaning antropotsentrik yondashuv va kognitiv lingvistika printsiplari doirasida bajargan ishi "yosh bola, go'dak" tushunchasiga bag'ishlangan [2]. N.V.Kryuchkovaning ishida yosh tushunchasining milliy-madaniy o'zgarishini tadqiq qilishga, shuningdek, tushunchalarni bitta lingvomadaniy umumiylik doirasida tadqiq qilishga diqqat jalb qilingan. Rus va fransuz tillari ma'lumotlari tadqiqot uchun material bo'lib xizmat qildi [6].

Tilshunoslikda "inson yoshi" ma'nosidagi leksikaga katta e'tibor berildi: shaxslarning yoshlari bo'yicha leksik-semantik guruh tavsiflandi[11], "inson yoshi" semantic maydonining strukturasi tushuntirib berildi[10], "shaxslarning yoshi bo'yicha nomlari" guruhning tizimli munosabatlari hozirgi rus tili materialida[10], shuningdek, genetik[14], qiyosiy-chog'ishtirma aspektlarda [14] tadqiq qilingan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ариес Ф. Возрасты жизни // Философия и методология истории. – М.: Прогресс, 1977. – С. 229.
2. Ашхарова А. Т. Концепт «дитя» в русской языковой картине мира. Канд. дисс. ... филол. наук. – Москва: 2002. – 42 с.
3. Бгажноков Б. Х. Очерки этнографии общения адыгов. Нальчик: – Эльбрус, 1983. – С. 189.
4. Борисова. –Томск: Водолей. 1997. // Мамардашвили М. Кантианские вариации. – М.: Аграф. – С. 10. 1997. // Шерден Т де. Феномен человека. /пер. с фр. Н.А. Садовского. – М.: Наука. 1987. – 240 с.
5. Фойт В. Семиотика и фольклор//Семиотика художественное творчество. –М.: 1977. –С. 183.
6. Крючкова Н. В. Концепты возраста (на материале русского и французского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов: 2003. – 46 с.
7. Кузнецова О.Д. Актуальные процессы в говорах русского языка (лексикализация фонетических явлений). Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Москва: 1977. – 47 с.
8. Леонтович О. А. Время глазами русских и американцев: сопоставительный аспект // Языковая личность: проблемы креативной семантики. К 70-летию профессора И. В. Сентенберг. – Волгоград: Перемена. 2000. – С. 76.
9. Матвеев В. И. Структура семантического поля возраста человека (на материале русского, украинского и английского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Киев: 1987. – 67 с.
10. Матвеев В.И. Структура семантического поля возраста человека (на материале русского, украинского и английского языков). – Киев: 1984. // Пулягин Г.А. Семантический анализ слов, называющих человека по возрасту (на материале имён существительных). – Курск: 1975. // Кацкова Д. Имена возраста в русском и словацком языках. Канд. дисс. ... филол. наук. М.: 1987. – 46 б.
11. Пулягин Г. А. Семантический анализ слов, называющих человека по возрасту (на материале имён существительных). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Курск: 1975. – 56 с.
12. Рыбакова Н. Труд и досуг в культурно-исторической ретроспективе. Общество риска: цивилизационный вызов и ответы человечества. – Москва: Научная книга. 2006. – С. 203-207.
13. Хайдеггер М. Прологомены к истории понятия времени / Пер. Е. В. Борисова. –Томск: Водолей. 1997. // Мамардашвили М. Кантианские вариации. – М.: Аграф. – С. 10. 1997. // Шерден Т де. Феномен человека. /пер. с фр. Н.А. Садовского. – М.: Наука. 1987. – 240 с.
14. Хашимов А. Х. Формирование новых семейно-бытовых отношений у народов Средней Азии. – Душанбе: Ирфон. ПИ. 1972. – С. 186.
15. Хайдеггер М. Прологомены к истории понятия времени / Пер. Е.В. Леонтович О. А. Время глазами русских и американцев: сопоставительный аспект // Языковая личность: проблемы креативной семантики. К 70-летию профессора И. В. Сентенберг. – Волгоград: Перемена. 2000. – С.76.
16. Шахматова Н. В. Социология поколений. Поколенческая организация современного российского общества. – Саратов: Изд-во Саратовск ун-та. 2000. – С. 99-101-116.